

UBAYDULLAXON HIKMATLARI VA UNDAGI G'UYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLAR

Mardonqulova S.O¹

Ilmiy rahbar: Aslanova Hafiza Abdurakhimovna

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Shayboniyxonning yirik vakili Ubaydiy taxallusi bilan she'rlar yozgan Ubaydullaxon hikmatlarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi, tasavvufiy qarashlari va badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Shoir va davlat arbobi sifatida tanilgan Ubaydullaxon ijodida axloqiy-didaktik ruh, adolat, sabr, nafsni tiyish kabi masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Shuningdek, Hikmatlarnin6666g til va uslub xususiyatlari, ularning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni ham yoritilgan va "Hikmatlar"ining qo'lyozmasi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: hikmat, Yassaviy, tasavvuf, didaktika, adolat, nafs, sabr, mumtoz adabiyot, Shayboniylar davri.

XVI asr o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Shayboniylar sulolasi vakillarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon bo'lib, uning ismi Xoja Ahror tomonidan qo'yilgan, ya'ni mashhur shayx o'z ismini qo'ygan. Xususan, Ubaydullaxon (1487-1540) nafaqat yirik davlat arbobi, balki ma'rifatparvar shoir sifatida ham tarixda iz qoldirgan. U Movarounnahr hududida siyosiy barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, ilm-fan va adabiyot rivojiga ham katta hissa qo'shgan. U yolg'iz farzand bo'lgan, ushbu jihatni she'rlaridan birida ham ta'kidlab o'tadi. O'z davrining eng mashhur, yetuk ulamolaridan ta'lim-tarbiya olgan. Ubaydullaxon yoshlik chog'laridanoq ilmga chanqoqligi, o'tkir zehni bilan ajralib turgan. U "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy", "Ubaydulloh" taxalluslari bilan o'zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Undan tashqari husnixatda ham tengsiz edi. Yetti xil xat yozishni bilgan, ayniqsa, ular orasidan nasx xatida juda ham mahoratli bo'lgan. Qur'oni Karimdan bir nusxa ko'chirganligi hamda bu muqaddas kitobga turkiy tilda tafsir yozganligi tarixiy manbalarda aks etgan.

Ubaydullaxon ijodi ko'proq diniy-axloqiy ruhdagi asarlar, xususan, hikmat janrida namoyon bo'ladi. Shularga asoslanib hikmatlar zamirida katta yashirin ma'no jamlagan, o'ta donishmandlik bilan bitilgan va nazmiy tartibga solingan, ifodasi hamda o'qilish ohangi bilan xalq og'zaki ijodiga yaqin turadigan she'riy asar deyish mumkin. Xoji Bektosh Valiy bu janrni "nafas" deya atagan. Mana shunday chuqur falsafiy mazmunga ega to'rtliklarga "ma'niy" ham deyilgan. "Ma'niy" ma'noga ega degan ma'noni bildiradigan janr bo'lib, Qozi Burhoniddin uni "tuyuq" deydi. Hikmat esa mantiqqa, e'tiqodga, ilm-u irfonga muvofiq so'z bo'lib, u kishidan ulkan iste'dodni talab qiladi. Qur'oni Karimda ham "Bir insonga hikmat (aytish qobiliyati) berilgan bo'lsa, unga juda ulug' xayr-ezgulik berilibdi demakdir" (Baqara, 269) deyiladi.[2. B. 36]

Hikmat janri turkiy adabiyotda qadimiy an'analarga ega. Hikmat - nasihat, ibrat va ma'naviy poklanishga undovchi she'riy shakl bo'lib, unda insonning ruhiy kamoloti masalalari ilgari suriladi. Shoirning hikmatlari xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, ular tasavvufiy qarashlar bilan sug'orilgan. Hamda hikmatlari badiiylik jihatidan tili va uslubi soda va tushunarli va xalqona tarzda yozilganligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu janrning yuksalishida Ahmad Yassaviy ning "Hikmatlar"i muhim ro'l o'ynagan. Keyingi asrlarda bu an'ana davom ettirilib, axloqiy-didaktik mazmundagi asarlar yaratildi. Ubaydullaxon hikmatlari ham ana shu an'ananing mantiqiy davomidir. Bu fikrdan kelib

¹ +Mardonqulova Sevinch Obidjon qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

chiqib Ubaydullaxon Yassaviyga munosib izdosh desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi Hikmatnavislik an'anasini davom ettirgani uning devonidagi hikmatlar, ayniqsa, Yassaviy shaxsiyati madh etilgan she'rlari ushbu fikrni tasdiqlashga qodirdir. Uning munosib shogirdi bo'lgan Ubaydiy ham hikmat yozishga jiddiyoq kirishib, yanada yaxshi ijodiy yutuqlarga erishdi. U hikmatlarining tarkibida bo'lgan madhiyasida A.Yassaviy haqida shunday deydi:

Barcha mashoyix sarvari Xoja Ahmad Yassaviy,
Sonsiz muridlar rahbari Xoja Ahmad Yassaviy,
Xizr otaning hamrahi, ogohlarning ogahi,
Doim, «ilohe», - «ilohe» Xoja Ahmad Yassaviy.

Hikmatlarda asosiy e'tibor insonning ichki dunyosiga, uning ma'naviy poklanishiga qaratiladi. Shoir insonni dunyo havasidan voz kechib, Haq yo'lida yashashga da'vat etadi.

“Tengrini unutmadi, biri budur,
Biri o'lumni jahonda doimo.”

Bu satr inson hayoti va olamning ikki eng muhim haqiqatini yodda saqlash zarurligini ta'kidlaydi: Rabbni unutmashlik va o'lanni doimo yodda tutish. Ma'noda bu insonni dunyoviy shiddat va hirsdan uzoqlashtirishga chorlaydi.

“Olim kishi ilmi bilan amal qilsa,
Rabboniyun zumrasida doxil bo'lur;
Ilmi bilan amal qilmas olim, biling,
Nodonlarga doxil bo'lur, johil bo'lur.”

Bu satrda ilmning qadriyatini nafaqat bilimda, balki amalga tatbiq etishda ko'ramiz. Haqiqiy olim-faqat ilm egasi emas, balki imliga amal qilgan kishidir. Ilm insonni ma'rifat yo'liga yetaklovchi kuchdir, amaliyot esa uni haqiqiy murabbiylik darajasiga olib chiqadi. Mazkur g'oya islomiy manbalarda ham keng uchraydi, xususan hadis va tasavvuf asarlarda “ilmiga amal qilmagan olim” tanqid qilinadi. Ubaydiy esa bu fikrni she'riy, hikmat tarzida ifodalagan.

“Nafs ila yurgan odam yo'lin yo'qotur,
Aql ila yurgan Haq yo'lin topar.”

Bu hikmatda nafs va aql qarama-qarshiligi berilgan. Nafs — insonni tubanlikka boshlovchi ichki mayl, aql esa hidoyat vositasi. Tasavvufda nafsni jilovlash komillikka eltuvchi asosiy shart hisoblanadi. Shoir aqlni Haqqa eltuvchi nur sifatida talqin qiladi.

“Ilm ila ziynat topar ahli bashar,
Jaholat ila xor bo'lur har nafar.”

Mazkur baytda esa ilmning ulug'ligi madh etiladi. Ilm insonni sharafligini, hurmatli qiladi; jaholat esa uni xorlikka olib boradi. Bu fikr islomiy-ma'rifiy an'analarga uyg'un bo'lib, ilmni komillik mezoni sifatida ko'rsatadi.

“Dunyo g'amiga ko'ngil berma, ey dil,
Bir lahza kulsa, yuz lahza yig'latg'ay.”

Bu baytda shoir dunyoning o'tkinchi va bevafo ekanini ta'kidlaydi. Dunyo insonga vaqtincha quvonch berishi mumkin, ammo uning ortidan ko'proq izzat keladi. Tasavvufiy talqinda dunyo — sinov maskani. Shoir ko'ngilni (dilni) ogohlantirib, haqiqiy baxtni moddiylikdan emas, ma'naviyatdan izlash kerakligini uqtiradi.

Ubaydiyning hikmatlaridagi g'oyaviy yo'nalish alohida ahamiyatlidir. Uning tasavvufiy g'oyalarida tavhid, Allohga muhabbat, qalb pokligi, nafsni tiyish kabi go'yalar mujassam. Shu bilan bir qatorda adolat, podshohning xalq oldidagi ma'suliyati, ijtimoiy tartibni saqlash kabi masalalar hikmatlaridagi mazmun mohiyatni yanada ochib beradi. Tasvir va obrazlar tashbeh, istiora, tazod; dunyo va o'limgacha bo'lgan beqarorlikni ko'rsatadi. Axloqiy yo'nalishda esa sabr, halollik, yaxshilik qilish, zulmga qarshi ogohlantirish kabi fazilatlar qamrab olgan.

“Yaxshilikdur kim qilib men xalqaro,
Biri budur kim, manga qildi sitam.”

Bu satr shaxsiy xulq-atvor orqali beminnat yaxshilik qilishni targ'ib qiladi va zulmga qarshi ogohlantiradi.

Tarixiy va madaniy kontekst orqali Shayboniylar davrida adabiyot va ilm-fan rivojlanishi, Ubaydullaxon hukmdor sifatidagi ta'siri va ilm-fanga qiziqishi orqali hikmatlarning xalqqa tarqalishi va ularning ma'naviy ahamiyatini yanada orttirgan. Bugungi kunda Ubaydiy hikmatlarining zamonaviy ahamiyati axloqiy tarbiya, ma'naviyatni oshirishdagi roli va ijtimoiy va shaxsiy hayotga tatbiq qilish mumkin bo'lgan qadriyatlarini shakllantirishda hissa qo'shmoqda.

Ubaydiy "Kuliyot"ida hikmatlar qismi 231-sahifasidan boshlanadi, biroq hikmatlarning boshlanish betlari mavjud emas. Bugungi kunda esa uning hikmatlari qo'lyozmasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 8931 raqami ostida saqlanadi. Shu bilan bir qatordan 2000-yilda "Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati" mavzusida fan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan Muhammad Abdullayev Ubaydiy "Hikmatlar"ini 2019-yilda nashr ettiradi.

Ubaydullaxon hikmatlari o'zbek mumtoz adabiyotining didaktik yo'nalishidagi muhim namunalardan hisoblanadi. Shoir o'z asarlarida ilm va amal uyg'unligi, nafsni tiyish, dunyoning o'tkinchiligi hamda insonning ma'naviy kamolot sari intilishi kabi masalalarni markaziy g'oya darajasiga ko'targan. Ularda tasavvufiy g'oyalar, axloqiy pand-nasihad, adolat va sabr kabi fazilatlar ulug'lanadi. Shoirning davlat arbobi sifatidagi tajribasi uning hikmatlarida adolat va mas'uliyat masalalarini chuqur yoritishga imkon bergan. Iqtiboslarda ko'rinib turganidek, Ubaydullaxon hikmatlari nafaqat adabiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hikmatlarda qo'llangan sodda va lo'nda ifoda, xalqona ohang hamda chuqur falsafiy mazmun ularning umrboqiyiligi ta'minlagan.

Demak, Ubaydiy hikmatlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ular yosh avlodni komillikka, ilm-ma'rifatga va yuksak axloqqa chorlovchi muhim ma'naviy manba sifatida qadrlanadi. Shoir merosi o'zbek adabiyoti tarixida tasavvufiy-didaktik yo'nalish taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ubaydullaxon, Devon. Toshkent: Fan nashriyoti, 1981.
2. Muhammad Abdullaev, "Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati" (fan nomzodlik dissertatsiyasi), 2000.
3. Xolbekov A., Qul Ubaydiy hayoti va ijodi. Toshkent: G'afur G'ulom, 2005.
4. A. Hayitmetov, Vafo qilsang. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1994.
5. Ubaydiyning "Hikmatlar"i nashr etildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi axboroti, 2020.
6. Ubaydiy "Hikmatlar"ining yangi nashri. YUZ.UZ, 2020.